



TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI  
KREATIV YONDASHUV RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI

UrDU psixologiya yo'nalishi, 241-guruh  
Magistratura bosqichi talabasi  
Allamova Shirinoy

**Annotatsiya :** Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida kreativ yondashuv va bu jarayonni qo'llab-quvvatlashda o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va individual yondashuvning ahamiyati hamda uning rivojlanishida psixologik holat, temperament, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, qiziqishlar hamda motivatsiya muhim rol o'ynaydi. qilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kreativlik, individual xususiyatlar, yangi metodlar, ijodkorlikning psixologik jihatlari, yangicha yondashish, shaxsiy xususiyatlar, g'oyalar yaratish, temperament, motivatsiya, qiziquvchanlik,

Biz shular orasida «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tmoqchimiz. Bu tushuncha so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan. Kreativlik (yaratuvchanlik, ijodkorlik) – bu yangi va orginal g'oyalarni o'ylab topish, muammolarga noyob yechimlar topish qobiliyatidir, bu bir xillikdan qochish, turli tajribalarni bog'lash va har bir ishga yangicha yondashish orqali namoyon bo'ladi va zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishishning muhim omili hisoblanadi.

**Kreativlikning asosiy jihatlari:**

- Yangi g'oyalar: Hech kim o'ylamagan g'oyalarni yaratish va ularni amalda qo'llash.
- Muvaffaqiyat kaliti: Har bir sohada ajralib turish va katta ishtiyoq bilan ishlash imkonini beradi.
- Rivojlantirish mumkin: Bu tug'ma qobiliyatdan tashqari, o'rganiladigan va rivojlantiriladigan ko'nikma.





• Zamon talabi:

XXI asrda bir xillikdan zerikkan jamiyatda kreativ insonlar farq qila oladi

**Kreativlikni oshirish usullari:**

Miyaga yangi tajribalar berish: Yangi sohalarni o'rganish, sayohat qilish, turli madaniyatlar bilan tanishish orqali.

Turli tajribalarni bog'lash: Stiv Jobs ta'kidlaganidek, turli sohalardagi tajribalarni birlashtirish orqali ijodiy fikrlash kuchayadi.

**Kreativ pedagog:** Darslarni qiziqarli o'tadigan, yangi metodlar qo'llaydigan, g'oyalarga boy o'qituvchi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasi va qiziqishlari ham kreativlikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Agar bola o'z faoliyatidan zavq olsa va o'zini erkin ifoda eta olsa, u yangi yechimlar va g'oyalarni yaratishga ko'proq intiladi. Shu sababli, ta'lim jarayonida individual yondashuv, o'quvchilarning psixologik va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, shuningdek, ijodiy erkinlik va rag'batlantirish muhitini yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu tarzda, kreativlikning shakllanishi nafaqat intellektual rivojlanish, balki shaxsning o'ziga xos individual xususiyatlari, psixologik barqarorligi va motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab jarayon sifatida qaraladi. Zamonaviy ta'lim tizimida bu jarayonni qo'llab-quvvatlash o'qituvchilardan o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish va individual yondashuvni tatbiq etishni talab qiladi.

Shaxsning individual xususiyatlari va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik. Shaxsning individual xususiyatlari va kreativlik o'rtasidagi bog'liqlik psixologik jihatdan murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsning tug'ma va orttirilgan fazilatlaridan tashkil topadi va uning rivojlanishida psixologik holat, temperament, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, qiziqishlar hamda motivatsiya muhim rol o'ynaydi. O'quvchining temperament turi kreativ fikrlash yo'nalishini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Sangvinik temperamentga ega o'quvchilar odatda faol va yangilikka ochiq bo'lib, ijodiy jarayonda tashqi stimullarga tez moslashadi. Melanxoliklar esa chuqur tahlil qilishga moyil bo'lib, original va noodatiy g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati yuqori bo'ladi.





Bugungi kunga kelib kreativlik nafaqat psixologlarning, balki pedagoglarning diqqat e'tiborini tortmoqda. Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda keng qo'llailmayotgan bo'lsa ham bu tushunchani ma'lum darajada pedagogik iste'molga kiritishga doir harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Pedagogika oid manbalarda kreativlik ijod bilan bog'liq holda o'rganiladi va tushuniladi. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikrlar bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog'liq holda tahlil etiladi. Shaxsning ijodiy motivatsiyani qo'llaganligi - qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilishdir. Kreativlik bu - xayoliy qarash; baho bera olish qobiliyatidir. Demak bu tushunchani biz bemalol pedagogning individual qobilyatiga kirita olamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. I.A. Karimov. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Tosh.: "Sharq" nashriyoti. 1997, 42-bet.
2. Davletshin M.G. va boshqalar. qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.:O'qituvchi, 1997. -134 b.
3. E. G'oziev, G. To'laganova. Pedagogik psixologiya asoslari. O'quv metodik qo'llanma. T.: Universitet, 1997. 80 b

